



UDK:8'1751'82-1/-9

Nargiza ISROILOVA,
Buxoro Pedagogika Instituti talabasi
E-mail:nigora.i@gmail.com

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

FEMINIZM VA MODERNISTIK NASRNING INTERTEKSTUAL ALOQALARI

Annotatsiya

Modernizm davrida jahon adabiyotining intertekstuallik masalasi ancha rivojlandi, feminizm davri namunalari nusxa va havolalar olish kengaydi. Ushbu maqolada feminizm davri yorqin namoyandalari Virjiniya Vulf, Jeyn Ostin asarlarida intertekstuallik masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Intertekst, intertekstuallik, feminizm, modernizm, bog'liqlik.

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ ФЕМИНИЗМА И МОДЕРНИСТСКОЙ ПРОЗЫ

Аннотация

В эпоху модернизма существенно развился вопрос интертекстуальности мировой литературы, расширилось копирование и отсылка к примерам из эпохи феминизма. В данной статье рассматривается проблема интертекстуальности в произведениях Вирджинии Вулф и Джейн Остин, ярких представительниц эпохи феминизма.

Ключевые слова: Интертекст, интертекстуальность, феминизм, модернизм, связь.

INTERTEXTUAL RELATIONS BETWEEN FEMINISM AND MODERNIST PROSE

Annotation

In the era of modernism, the issue of intertextuality of world literature has developed significantly, copying and referencing examples from the era of feminism has expanded. This article examines the issue of intertextuality in the works of Virginia Woolf and Jane Austen, prominent representatives of the feminism era.

Key words: Intertext, intertextuality, feminism, modernism, connection.

Kirish. 1900-yildan keyin "yangi ayol" jiddiy tanqidiy adabiy sharhlarda, tobora kamroq paydo bo'ldi, biroq uni "Vestminster rev'yu", "Bukmen", "Arena" kabi jurnallarda, ko'klarga ko'tarib ni davom ettirganlar, keyinchalik "Vogue" va "Ozod Ayol" kabi yangi nashlarda ham paydo bo'lgan edi.

1900-1920-yy. Arnol'd Bennet, Jozef Konrad, Gerbert Uells, Virjiniya Vulf, D. H. Lourens - barchasi "yangi ayollar" haqida romanlar yozgan. Ular "Anna besh shahardan", "Anna Veronika", "Maxfiy agent", "Voqea", "Sayohat", "Kecha va kun", "Oq Tovus", "Buzg'unchi" va b. kabi asarlarida - "yangi ayollar" adabiyoti tomonidan ko'tarilgan turli masalalarga murojat qilishgan.

Asosiy qism. Albatta, yuqorida qayd etilgan kitobda Ann Ardis ta'kidlaganidek, ayollarning o'z taqdirini o'zi belgilash masalalari 1890-yillardan boshlab adabiy yangiliklar to'liqini keltirib chiqardi, bugungi kunda unutilgan asrning yozuvchilari ham modernizmning tug'ilishi uchun "javobgar" xisoblanadi. Mona Kerd, Meri Cholmondli, Gertruda Diks, Ella Xepvort Dikson, Arabella Knili, Edit Jonstoun, Doroti Leyton, Oliv Shrayner - ularning barchasi XIX asr romani kanonlardan foydalangan va ularni o'zgarartirgan, qisman tan olingan promodernistlar va modernistlar yangiliklarini qabul qilishgan. Yuqorida aytib o'tilgan mualliflarning romanlari protomodernizmdan uzoq bo'lsa-da, biroq ularning hikoyasi yuqori modernizm bilan bog'liq bo'lgan markazlashtirilgan sub'ektivlik va suvjetlar chizig'idan qaysidir bir jihatini aks ettiradi.

Boshqa tomondan, Enn Ardis "yangi ayollar" adabiyoti mualliflari va modernistlar o'rtasidagi muhim farqni qayd etadi. Gertruda Diks, Florens Diksi, Meri Cholmondli, Ella Xepvort Dikson san'atni siyosiy jalb etish sifatida taqdim etgan. Modernistlar esa dolzarb masalalarni yoritishdan qochishgan va ular mustaqilliklarini shunchalik qadrlashar edilarki, buning uchun ular adabiyotda eng yaqin tayyor

safdoshlari bilan bahslashishga tayyor edilar (edvardiyaliklar, "yangi ayollar" nasr yozuvchilari va b.).

Qanday bo'lmasin, viktoriya davri romani, tabiatshunoslik maktabi va "yangi ayollar" adabiyotning interteksti bilan tanishgandan so'ng, modernistlar tomonidan ko'p narsa o'rganilgan va aniqlik kiritilgan. Shunday qilib, "begonalar ko'zidan o'zining qo'lyozmalarini yashirib yurgan, Jeyn Osten hikoyasida, Virjiniya Vulf uni "A Room of One's Own" esesida ko'rsatib o'tgan, 1890- va 1900-yillarning romanlarida e'tirof etilgan. Sara Grandning "Ilohiy egizaklar" asarida Mister Prays nomidan aytilgan quyidagi so'zlar mavjud, bugungi kunda qadrli bo'lgan "nazokatli ayol ideallari"ga kelsak, biz keyingi davrlarda voz kechishimiz, maxsara va nafratga duchor bo'lgan juda ko'p eski narsalarni eslashimiz mumkin, garchi ular, albatta, o'z davrida ko'p erkaklar qalblariga ilqlik solgan. ...Jeyn Ostin bilan bu ta'sirli voqea, xonasiga kimdir kirib qolsa, o'zi yozib turgan qimmatbaho qo'lyozmasini tikib turgan matosi bilan qoplab yashirgani, chunki u ayollarga xos bo'lmagan roman yozishdek ish bilan shug'ullangani uchun sharmanda bo'lishidan qo'rqqar va ahmoqlar beradigan tanbehlardan qo'rqqar edi. Menga bolaligidan tanish bo'lgan ushbu hikoya, bu mavzuda boshqalar bilan suhbat qilishga imkon bermas edi.

S.Grend romanidagi individual tafsilotlar, agar modernistik matnga intertekstual o'xshashliklar kabi o'qilmasa, keyin har qanday hol qabul qilinadi. Bu, xususan, Bibliyadagi iqtibosda kuzatiladigan bir necha bor takrorlangan va hikoyachilikni tashkil etuvchi Mendelsondan notalar qatori: "Isroil haqida qayg'uradigan kishi uxlamaydi, xattoki mudramaydi ham". Ushbu ibora so'zma-so'z-grafik jihatdan-romanning leytmotiviga aylanadi: "bir daqiqalik tanaffus bor edi, keyin zarba bo'ldi, yumaloq, to'laqonli, g'amgin va ayni paytda qoniqarli, u o'zining tantanali xotirjamligi kuchi bilan qayg'u va sukunat dunyosiga charchagan yurakning qolgan

qismi va aql uchun bulardan qutilishga ilk umid bag'ishladi: (Mendelsondan notalar qatori: "Isroil haqida qayg'uradigan kishi uxlamaydi, xattoki mudramaydi ham") (76).

Bunday musiqiy motiv yoki belgi keyinchalik Vulf tomonidan 20-yillar romanlarida qo'llanilgan usulga o'xshaydi: "Misses Dalloway" asarida Big Benning bong urishi, "To the Lighthouse" romanidagi mayoq xuddi shunday vazifani bajaradi.

Bu, shuningdek, Yevadnaning matematika bilan shug'ullanishi, "Kecha va kunduz" romanidan Ketrin Xillberi haqidagi fikr: "u (Evadna) bu narsa haqida otasi bilan boshqa gaplashmadi, lekin o'sha paytdan boshlab ilgari uning mashg'ulotlaridan biri bo'lgan matematika, uning hayotidagi asosiy qiziqish va uning ta'limining asosi bo'ldi" (12).

"Yangi ayollar" adabiyoti mualliflarining siymolari ba'zan modernistlar yodda tutgan arxetiplar ostida umumlashtirilgan, bir qarashda, butunlay yasama tipajlarni aniqlashga yordam beradi.. Masalan, yozuvchi Vulf "A Room of One's Own" essensining 6-bobida, Amerikalik yozuvchini tasvirlaydi, uning ayollarni tasvirlash, ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlash usuli Grant Allennig romanlari va uslubiga juda o'xshash. Romandagi Germiniya va Alanning sevgi chizig'i qanday ko'rinishga ega: "u uni o'z quchog'iga oldi. Uning ko'kraklari ko'kragiga tegib, uni larzaga soldi. Ularning lablari bir lahza birlashdi. Germiniya uning bo'sasini itoatkorlik va hech qanday qarshilik ko'rsatmasdan qabul qildi. Uning ruhi to'lib toshib ketdi. Uni barmoqlarining uchlarigacha allaqanday titroq egallab, oldindan nimanidir kutganday... "Shunday qilib, Germiniya, siz meniki bo'lasiz! Axir siz menga va'da berdingiz". "Sizniki emas" - Germiniya uni bebosh ovoz bilan tuzatdi. - "Allaqachon sizniki, Alan. Negadir menimcha, men doimo sizniki bo'lganman. Men siznikiman. Men hozir senikiman. Nimani istasang bajo qilurman." Buni shunchalik sodda, shunchalik toza, tabiiy ravishda aytgandiki, munosib ayolning bor sadoqati bilan, o'zini aybdor his qilmasdan sevadigan erkak ixtiyoriga topshirish, Alan esa uning muloyimligidan hayron bo'lishni o'ylamagan ham" (3-bob).

Mustaqillik va erkinlik haqidagi barcha gaplarning ortida deyarli ayollikning o'zgarish an'anaviy ideali turadi. Germiniya "sevgani ortidan ergashish uchun yaralgan ayol"; "qadimda ayolning taqdiri erkak kishidan boshigacha qarashdan iborat, va ushbu bo'y sinish holatida bo'lganidan xursand edi" va rol stereotiplari qat'iy ta'kidlangan: "erkaklar prinsipi faol va tajovuzkor; ayollarniki inertdir, passiv va barchasini qabul qiluvchi" (61).

Ehtimol, intertekstual jihatdan eng qiziqarli va modernizm genezisi bilan bog'liq holda egizaklar mavzusidir. Sara Grandning romanida egizaklarning qiyofasi ikkilangan (ambivalent): romanning birinchi qismlarida u qisman o'g'il va qizning erkin rivojlanishining ideali sifatida yuritiladi; "Tenor va yigit" bobida, u inson ikki qismining ramziga aylanadi, uning O'zligi (Kastor va Polluks egizaklari haqidagi afsona bilan o'xshashliklar mavjud). Gapiradigan ismlar-Diavolo va Anjelika-ularning soch ranglarining kontrasti bilan kuchaytiriladi: Diavoloda ochiq rangda, singlisida - qora. Anjelika uyqusining epizodi aka-uka va opa-singilning "bir-birini to'ldirishini" ta'kidlaydi, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, bu esa o'z navbatida "yangi ayollar" nasrida "androgen ong" mavzusining ilk rivojlanishi, bu keyinchalik modernistlar matnlarda to'liq ishlab chiqilgan. Androgen ong g'oyasi Virjiniya Vulfnig "A Room of One's Own" va "Orlando" asarlarida yaqqol kuzatiladi. "Misses Dalloway" romanida ayol qahramoni va Septimus Smit parallel tasvirlar yoki juftlik sifatida paydo bo'ladi. D. X. Lorens "Apokalipsis"da mifologik egizaklarda ikkita bir birini to'ldiruvchi erkak ongining ramzini ko'rsatadi. Ushbu egizak obrazini badiiy nasrda "Oq tovus" va "Buzg'unchi" asarlarida, keyinchalik "Avron fleytasida" rivojlantiradi.

Sara Grand ijodida kelajak androgen ong mavzusiga yarim savollar shaklida ilk urinishlarda kuzatiladi: an'anaviy erkaklarga xos bo'lgan ayolning ma'lum mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi, tarbiya elementlari, ta'lim fanlari? Shu yerdan ta'limni o'zaro bog'liqligi motivining paydo bo'lishi: D'yavolo nimani nimani o'rgansa Anjelika ham shuni o'rganadi; kiyimlarining o'zaro almashinuvchanligi - u D'yavoloning kiyimini kiyadi, tunlari Tenor oldiga keladi (mifologik kun va tunning o'zgarishi motivi) va uning rolini o'ynaydi; ularning bir-birini to'ldirishi - ular bir mavjudotning ikki qismiga o'xshaydi. Biri qora- sochli, boshqasi sariq, Anjelika qiyofasida eraklikdan nimadir bor, D'yavoloda esa - ayollardan, har, ehtimolga qarshi unda Evadnega intilish bor. Biri kun davomida ko'rinadi, ikkinchisi (inson qiyofasida) - kechasi. Ba'zan androgenik holat aniq ifodalanadi: "Oh, yigit!" - xitob qildi Tenor, mamnun va chuqur xo'rsinib. "Sizda daholik bor. Sen o'ynaganda, "Atlas joduligi" dan bir jonzotga o'xshab qolasan:

A sexless thing it was, and in its growth

It seemed to have developed no defect

Of either sex, yet all the grace of both.

Ammo yigitga bu ta'rif albatta yoqmad. U ho'mrayib, dedi: "Siz buni daholik deb xisoblaysizmi? Mening g'oyam, garchi siznikiga yaqin bo'lsa ham, baribir boshqacha. Menimcha daholik - jinsidan qat'iy nazar, erkak va ayolning aql hislatlari bir kishida birlashtirilganligi.(413). Romanda bu mulohazalar Anjelikadan ko'proq hikoyachining bayonotiga o'xshaydi. Chunki suyet jihatidan androgenlikdagi bayon qilingan e'tiqod ta'kidlanmagan. Anjelika, garchi moslashuvchan mavjudot deb tasvirlangan bo'lsa-da, intellektual jihatdan akasidan kam emas, romanda esa u beparvo jonzot sifatida namoyon bo'ladi, ba'zan shafqatsiz. Unga asarda ko'p joy berilganiga qaramasdan, kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb qiluvchi ahamiyatli badiiy obraz bo'la olmadi.

Jorj Edjertonning birinchi to'plami "Tonallik"ni Lourensning nasri, ham badiiy, ham hujjatli bilan taqqoslaganda qiziqarli intertekstual parallel' paydo bo'ladi; xususan, "Ko'ndalang chiziq" hikoyasining final epizodi bilan, unda noma'lum ayol-qahramonning fantaziyalari tasvirlangan: "Uning hayollari yovvoyi qo'shiqdek shakllanadi... qo'pol ritmik uyg'unliklar sarosima urishlar va unda yashaydigan yovvoyi qo'lga o'rgatilmagan ruhi bilan. Keyin u o'zini ochiq osmon ostidagi antik teatr sahnasida tasavvur qiladi, unga yuzlab qaraydilar. Bilaklarda olmos bilan bezatilgan ilonsion taqinchoqlar yaltiraydi, xuddi shunday bezak belini o'rab olgan... U oldinga egiladi va raqsga tushadi, yumo'q qomatini, nozik qo'llarni egib, har bir insonning ruhini larzaga soladm... o'sha payt o'zini Irlandiya tepaliklarining soyasida yotganini his qiladi... ajoyib harakatlar qalblarga hayrat va zavq bilan mast qiluvchi kuchdir. O'zi nazar solganda... ko'tarilgan yovvoyi musiqa ritmiga tebranib, dastlab sekin, keyin tezroq, jozibali, mast holda... Bir titroq bilan, yorqin, jasur sakrash va u qarshingizda qo'llarini cho'zgan holda turibdi, ko'zlari ehtirosiga to'la, bir oyog'ida muvozanat saqlab, avjiga chiqishni so'rab turadi, harakat haqida tushini o'ngida nihoyasiga yetkazishi uchun. Va erkaklarning hammasi o'rnidan turib, unga javob berishadi. Intertekstual parallelda o'qib chiqilgan, masalan, homilador Lourensning "Kamalak" asaridagi Anna Brengvenning mashhur raqs epizodi bilan taqqoslaganda bu parcha istehzo bilan qabul qilinadi. Biroq, aynan shuning uchun ham intertekstni o'rganish zarurdir, chunki yozuvchining badiiy mahoratining me'yoriga, hamga oldingi avlod oldida burch darajasini aniqlash imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan kabi parchalar, Lourens ularni san'atga o'tkazmasdan, ko'proq yozilishi kerak.

Xulosa va takliflar. Vulf matnlarining "yangi ayollar" romanlari bilan ilk taqqoslanishi boshqa intertekstual

parallellarni ochib beradi. Masalan, Vulfning "Sayohat" va Sara Grandning "Ilohiy egizaklar" fabulasining bir qismi asarlari fabsyujetidan - bu nikoh arafasida turgan yosh qizning tavsifi keltirilgan (Vulfda - bu Reychel Uillobi; Sara Grandda - bu Evadna, Edit va b.). Albatta, syujetlar boshqacha, umumiylik faqat fabula darajasida, buni Vulf, xuddi kekxa

avlod ayol-yozuvchilaridan qabul qilgandek: nikoh ayolga baxt keltirmaydi, bu azobga to'la xayot, turmushga chiqmaslik, farzand ko'rmaslik afzaldir. Vulfda bu holat Reychel gallyusinasiyalar sifatida tasvirlangan, uning hech qachon sodir bo'lmaydigan nikohdan qo'rqishi.

ADABIYOTLAR

1. Modern Criticism and Theory. Ed. David Lodge. Lnd, New York, 1990. 36T
2. Бахтин М.М. Из предыстории романного слова / Вопросы литературы и эстетики. - М.: 1975.- С.433.
3. Eco, Umberto. Semiotics and the Philosophy of Language, 1984; The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts, 1979.
4. Grylls, David. Victorian Fiction: Paper Read at the Conference "Cultural Responses to History in English Literature of the 19th-20th Centuries". - Oxford. - 1994.
5. Flint, Kate. The Victorian Novelist: Social Problems and Social Change. -Lnd: 1987.
6. Stutfield, H.E.M. The Psycholoty of Feminism.-Blackwood's Magazine.-January 1987.-Pp. 104-117.
7. Ardis, Ann L. New Woman, New Novels: Feminism and Modernism. - Lnd:1990.-R175.
8. Hardy, Thomas. The Tree of Knowledge.-New Review.-June, 1894.- R681.